

## ADABIYOTDA AN'ANA VA NOVATORLIK XUSUSIDA

Kurbanova Charros Botir qizi  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
(kcharros@bk.ru +998933580515)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada an'ana va novatorlik tushunchalari adabiyotshunoslikda eng muhim muammolardan biri sifatida tadqiq etilgan. Mazkur muammo nafaqat adabiyotshunoslikning asosiy muammosiga aylangan, balki madaniyat, san'at, falsafa kabi fanlarda ham o'rganilishi xususida so'z yuritilgan. Adabiyotshunoslikdagi bu muammo, ayniqsa, rus va o'zbek olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilganligi, hatto, konsepsiyalar ishlab chiqilganligi xususida fikrlar bildirilib, bugungi adabiyotda asosiy pozitsiyani egallayotganligi misollar orqali isbotlashga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** An'ana, novatorlik, konsepsiya, davr, uzluksizlik, davomiylik, davr, adabiyot, san'at, estetika, falsafa, adabiyotshunoslik.

**Kirish.** Biror bir davr keyingi davr uchun ma'lum ma'noda an'ana vazifasini bajaradi. Chunki bu davr bosib o'tgan yo'l o'z davri uchun yangilik bo'lib, yangilik asta-sekinlik bilan o'zlashtirilib, unda mahorat masalasi oydinlashib, tasvirlar quyulashib borilaveradi. Natijada esa keyingi davr uchun bu jarayon an'anaga aylanadi. Umuman, adabiyotshunoslikka e'tibor berilsa, bu masalaga ancha katta e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. An'ana va novatorlik (novatorlik bugungi kunda innovatsiya istilohiga to'g'ri kelmoqda) muammosi rus adabiyotshunosligida A.Bocharov, A.Bushmin, V.Dneprov, L.Ershovalar tomonidan ilmiy asoslangan. Bu muammoga an'ana va yangilik aspektida mulohazalar yuritishadi. Bu ikki qutbning o'zaro bog'liqligi, dialektik birligi, ular orasida barcha san'atlarning joylashishi bu muammoning nihoyatda keng tarmoqqa ega ekanligidan dalolat beradi. Shu bois rus adabiyotshunosligida G.G.Gadamer [1], R.Genon [2], I.G.Gerder [3], Ye.Shatskiy [4], D.D.Blagoiy [5], V.B. Vlasova [6], Yu.N.Davidov [7], M.G.Zavyalov [8], D.B.Zilberman [9], I.T.Kasavin [10], V.D.Plaxov [11], N.V.Solnsev [12] A.G.Sperkin [13], I.V.Suxanov [14] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topadi.



**Asosiy qism.** I.G.Xerder o‘z tadqiqotida an’anani insoniyatdan uzilgan tajriba sifatidagi madaniyat deb talqin qiladi. A.P.Spirkin va D.D.Blagoiy bu fikrni yanada oydinlashtirib, uni an’analarni rivojlantirish qobiliyati sifatida e’tirof etishadi. Bu sotsial ta’riflar an’ananing furktsiyasi bilan izohlanadi. V.B. Vlasov, M.G. Zavyalov, V.D. Plaxov, N.V. Solnsev tadqiqotlarining asosiy mazmunida ham shu aspekt birinchi o‘ringa chiqadi. I.V.Suxanov an’ana va odat tusiga kirgan hodisaning o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratadi. Ye.Shatskiy esa tushunishda turlicha yondashuvlar hamda urf-odatlarining muallif g‘oyasini berishdagi o‘rni bilan bog‘liqlikda bu muammoni tadqiq etadi va tizimlashtiradi.

Badiiy asarlarning ijod jarayoniga ta’siri, san’at asarlarining ulardan oziqlanishi kabi muammoni G.G.Gadamer mumtoz adabiyot bilan bog‘lab o‘rganadi [14]. G.G.Gadamer aynan XX asr ijodkodlarining an’analarga bo‘lgan munosabatini o‘rganar ekan, A.Ya.Zis, A.A.Kamenskiy, Ye.G.Kataeva, L.M.Nemchenko, F.M.Tursunzodalar yaratgan tadqiqotlarga ham e’tibor qaratadi. Badiiy san’atning rivojlanishida badiiy an’alarning mohiyati va uning rolini shu asosda asoslaydi [15], [16], [17], [18], [19].

Novatorlik (innovatsiya) masalasi san’at, falsafa va psixologiya yo‘nalishlarining ham asosiy muammosi sifatida talqin etila boshlandi. I.Kant va G.V.A.Gegel kabi allomalar klassik falsafa, san’atda yangi o‘ziga xoslikning paydo bo‘lishini aynan iste’dod va daholik bilan belgilashdi [20], [21]. Bir qator tadqiqotlarda esa obrazlarni shakllantirishda individuallikning rolini muhim deb hisoblashadi. Bu ham o‘z o‘rnida novatorlikni keltirib chiqishidagi muhim pozitsiya ekanligini ta’kidlashadi [22], [23], [24], [25], [26], [27]. S.L. Rubinshteyn va K. Abulxanovalar psixologiya nuqtayi nazaridan tasavvurni yangilik manbai sifatida o‘rganishadi [28], [29]. Ye.Ya.Basinning tadqiqotida impatiya muallif bermoqchi bo‘lgan g‘oyaning paydo bo‘lish mexanizmini ko‘rib chiqishga imkon beradi deb hisoblaydi [30], [31]. Shunga asoslangan holda san’atda an’ana va novatorlik masalasining o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Bu masalaga estetika nuqtayi nazaridan ham yondashilgan [32], [33], [34], [35], [36], [37]. Bir necha tadqiqotlarda muallif dunyoqarashi tadqiq etiladi. B.M.Bernshteyn, V.V.Bichkov, P.A.Florenskiylar bu masalani tadqiq etishar ekan, ikki pozitsiyani inobatga olishadi. Birinchi pozitsiya individuallik bo‘lsa, ikkinchi pozitsiya jamoa dunyoqarashi hisoblanadi [38], [39], [40], [41]. Hukmron ong sifatida muallif dunyoqarashini olar ekanlar, u jamoa dunyoqarashi asosida o‘z ishini olib boradi. Chunki jamoada shakllangan an’ana barcha dunyoqarashning asosiga aylanadi kabi g‘oyalar atrofida mulohaza yuritishar ekan, uni shakllanishida ham,



xoh u hukmron g'oya bo'lsin, jamoa dunyoqarashi yotadi deb hisoblashadi. Bu kabi qarashlar esa estetik hodisaning asosiga aylanadi.

Bu muammoni o'rganishda san'atshunoslikdagi qarashlar ham muhim. M.Alpatov, I.Ya.Boguslavskiy, Ye.Degot, Yu.D.Kolpinskaya, Ye.F.Kojin V.N.Lazarev, M.G.Neklyudov, S.G.Nesselishraus, Ye.I.Rotenber, D.V.Sarabyanov, I.A.Smirnov va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida an'ana va novatorlikning o'zaro ta'sirida individual uslublar va yo'nalishlar kelib chiqqanligi va shu asosda yangi ijodiy maktablar yaralganligini ta'kidlab o'tishadi [42], [43], [44], [45], [46].

Madaniyatshunoslikka oid asarlarda asosan an'ana va novatorlik ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etiladi [47], [48], [49], [50]. Rassomlar, haykaltaroshlar, shoir va dramaturglarning (Leonardo da Vinchi, Sh. Perro, J. Lafonten, N. Pussen, E. Delakrua, P. Pikasso, K. Malevich, V. Kandinskiy singari [51], [52], [53], [54]) ijodiy ishlarida an'ana va novatorlikning ijtimoiy-madaniy jarayonga o'zaro ta'sirini mafkuraviy jihatlar bilan bog'lab olib borishadiki, natijada ularning pozitsiyalari ijodda qay ma'noda novatorlik bo'lsa, qaysi bir ma'noda an'anaga aylanadi.

Bu borada maxsus tadqiqot ishlari borki, ularda badiiylik mohiyatini muallif shaxsining estetik ongi va estetik ongni shakllanishida tilning rolini o'rganishda o'z ifodasini topgan. V.L.Lextsier o'z tajribasida badiiy fenomenologiyaga urg'u beradi. Uni til xususiyatlari bilan bog'laydi [55]. Rus adabiyotshunosligida X.L.Borxes, S.N.Bulgakov, V.S.Solovev, B.P.Visheslavtsev, N.O.Losskiy singari adiblarning ijodiy jarayonida an'ana va novatorlikning asosiy xususiyatlari turli aspektlarda kurib chiqiladi [56], [57], [58], [59].

An'ana (traditsiya) atamasi xususida adabiyotshunoslikda birinchilardan bo'lib M.M.Baxtin 1924-yilda fikr yuritadi. U adabiyotni madaniyatning ajralmas qismi ekanligini e'tirof etgan holda adabiyot ham an'anaviylikka ega ekanligiga to'xtaladi. An'ana (traditsiya) tushunchasini "Katta davr" deya tushuntirishga harakat qiladi. Aynan ushbu katta davrda o'ziga xos an'analar yaralishi va ijodkorlar unga munosabat bildirishi, o'z asarlarida ifoda etishi mumkinligini izohlaydi. Bu termenni (traditsiya) adabiyotshunoslikka birinchilardan bo'lib V.A.Dinnik tomonidan kiritiladi. V.A.Dinnik traditsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib (tradere – peredavatъ) uzatish ma'nosiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Biroq bu tushuncha bir qator adabiy hodisalarni ketma-ketlikda natijalarni bog'lashga nisbatan istiloh etish mumkin emas deya uqtiradi. Shu bois ham u atamani kengaytirgan holda "taqlid qilish", "qarz olish", "ta'sir qilish" tushunchalari orqali anglatishga intiladi [60]. Biroq adabiyotshunosning bu fikri ham an'ana atamasini to'liq anglata olmaydi. Chunki davomiylikni anglatgan bu tushuncha o'zida badiiy asarning barcha



elementlarini (mavzu, mazmun, kompozitsiya, uslub va bosh.) birlikda qamrab oladi. An'anaviy material ma'lum bir adabiy muhitda umume'tirof etilgan, uning badiiy qo'llanilishining bir qismi bo'lib, odatlar bilan tasdiqlanib, umumiy mulkka aylanadi. Darhaqiqat, adabiy muhitga kirib kelgan har bir ijodkor o'zidan oldingi yoki zamondosh shoirlarining ijodiga maftun bo'lib, an'anaviylikka asoslangan asarlar yarata boshlaydi. Shuning zamirida esa o'zining individual uslubini ham shakllantiradi. Shu bois ham adabiyotshunosning yuqoridagi fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Biroq ijodkorning individual uslubi va u yaratgan asarlarning keyinchalik an'analarga aylanishini adabiyotshunos aniq ifodalab beradi. V.A.Dinnik adabiy an'ananing notekis intensivligini juda asosli ta'kidlaydi. Uning fikricha, uzluksizlikka munosabat kuchayib borishi (masalan Pushkin an'anasi) keyin zaiflashishi va nihoyat to'xtashi mumkin. Adib yashayotgan tarixiy sharoit tufayli an'anani qayta tiklash mumkin. V.A.Dinnik bu borada yana bir muhim jihatni qayd etadi: ijodkor tomonidan an'analarni qayta tiklash ham ongli, ham ongsiz darajada amalga oshirilishi mumkin. Adabiyotshunos tomonidan shakllantirilgan ushbu pozitsiya bugungi kunda ham zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan inkor etilmaydi.

Adabiy an'analarni muammosi A.S.Bushminning monografiyalarida ham joy oldi. "Adabiyotshunoslikning metodologik masalalari", "Adabiyot taraqqiyotida uzluksizlik" kabi tadqiqotlarining asosini uzluksizlik hodisasining boshlang'ich nuqtasi: an'ana jamiyatlar adabiy-badiiy taraqqiyotining obyektiv qonuniyati bo'lib xizmat qiladi degan tezis tashkil etdi [61]. A.S.Bushmin bizningcha, uzluksizlik mexanizmlari dialektikasini ham ishonchli tarzda belgilaydi: inkor, tanqidiy tanlash va estetika nuqtayi nazaridan har bir qimmatli material o'z davrining ijodiy rivojlanishini belgilaydi. Tadqiqotlarining asosiy xulosasi adabiy taraqqiyotning uzluksizligida sintez tamoyilini ajratishdir. Olimning ta'kidlashicha, har bir davr o'zidan oldingi davrlarning muhim va yaqin tajribasini tanlaydi. Uning "ma'naviy qadriyatlar vaqt sinovidan o'tadi" degan fikriga qarshi chiqib ham bo'lmaydi. A.S.Bushminning go'yo ushbu fikri an'analarni belgilovchi qonuniyat singari jaranglaydi. Darhaqiqat, ba'zi an'analarni abadiy yo'qoladi, yoki yana dolzarb bo'lib qoladi va ikkinchisi insoniyat taraqqiyotida muhim madaniy qatlamni tashkil etadi. A.S.Bushmin an'analarni muammosini o'rganishda samarali yo'lni tanlab: "adabiyotning izchil rivojlanishining eng yuqori samarasi avvalgisiga o'xshashlikning to'liqligi va chastotasida emas, balki ularning farqida namoyon bo'ladi" [61] degan xulosani beradi.



D.D.Blagoiy ham boshqa adabiyotshunoslar singari madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida an'analarining dolzarb ahamiyat kasb etishiga e'tiborini qaratadi. U "An'analar va an'analar to'g'risida" [62] maqolasida "an'ana" va "an'anaviylik" toifalarini tushunishni asosli ravishda taklif etadi. Olim an'anaviylik tushunchasiga zamonaviy bo'lmagan (ko'pincha hatto unga qarshi) eskirgan, eski uslubda bo'lgan, har qanday holatda ham qoralashga loyiq narsa, rad etishga arziydi deb ta'riflaydi. Qisman D.D.Blagoiy qarashlariga qo'shilish mumkin. Chunki gohida an'ana rivojlanishni sekinlashtirishi yoki umuman, to'xtatib qo'yishi ham mumkin. Ammo adabiyotshunos "aqli an'ana" tushunchasini o'tmishdoshlardan zamondoshlarga o'tib kelayotgan avlodlarning ko'p asrlik tajribasi sifatida organik tarzda kiritadiki, bu kabi qarashlar an'anaga bo'lgan munosabatni o'zgartirib yuboradi. D.D.Blagoiyning so'zlariga ko'ra aqli an'analar madaniyatning keyingi rivojida zaruriy to'rtki bo'lib, an'anaviylikni yengib chiqadi. D.D.Blagoiyning jamiyat va madaniyat borasidagi bu qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Olimning ijodkorning yaratayotgan asari va ijodi borasidagi asosiy qarashi, bizningcha quyidagidir: "Hatto eng zo'r yozuvchi ham hech bir asarini (qanchalik u yangi va original bo'lmasin) noldan yaratmaydi" [63].

Adabiy an'analar borasida D.S.Lixachyovning qarashlariga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Olim "O'tmish - kelajak" borasidagi tadqiqotlarida [64] insoniyatning ma'naviy rivojlanishi uchun tajriba, an'analar va madaniy merosning ahamiyati ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, butun insoniyatning yoki qaysidir xalqning madaniyati mexanik hodisa emas, balki ko'p asrlik bunyodkorlikdir. Bu chuqur izlanish va mukammallikni talab qiladi. Shuning uchun ham tarixdagi har bir madaniy yuksalish qaysidir ma'noda o'tmishga murojaat bilan bog'liqdir. D.S.Lixachyovning to'g'ri ta'kidlashicha, an'analarni o'zlashtirish yangi shakllarni inkor etish emas, balki madaniyatning o'tmishdagi to'planishini talqin qilish va baholashdir. Yoki olimning adabiy merosni har qanday idrok etish rivojlantirish cheksiz jarayonni o'z ichiga oladi degan fikriga ham qo'shilish mumkinki, har bir o'ziga xos davr o'ziga kerakli qadriyatlarga aylanadi. Olimlar uchun adabiy davomiylikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi muhim masala – yozuvchi ijodidagi an'ana va novatorlikning o'zaro ta'siri muammosidir. So'z san'atkorining faoliyati o'tmishdoshlar tomonidan ishlab chiqilgan tajriba va qadriyatlarga tayanmasdan mavjud bo'lolmaydi. Shuning uchun adabiyotshunoslikda "an'ana" tushunchaning o'ziga asosiy urg'u beriladi. An'analar nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan yana biri V.E.Xalizev hisoblanadi. Olim an'ana tushunchasini haqli ravishda "uzluksizlik", "madaniy



xotira”, “meros”, “buyuk tarixiy davr” kabi kategoriyalar bilan bir qatorga qo‘yadi. Adabiyotshunos “an’ana” so‘zining ikki ma’nosini ajratib ko‘rsatgan holda atamaning o‘ziga xos talqinini taklif qiladi. Ushbu atama talqinining birinchi varianti “takrorlash va o‘zgaruvchanlik shaklida o‘tish tajribasiga tayanishni” o‘z ichiga oladi. Konseptsiyaning bunday shifrlanishi V.E.Xalizevni bir qator olimlarga ergashib “an’ana”ni “an’ana” va “an’anaviylik” bilan birlashuvi asosiga qurilgan qarashlarga olib keladi. Ammo adabiyotshunos bu atamaning ikkinchi talqinini ham taklif qiladi. U an’anani “jamiyat, xalq, insoniyat merosini tashkil etuvchi qadriyatlarni qurishni yakunlashni o‘z ichiga olgan madaniy (ayniqsa, og‘zaki va badiiy) tajribaning tashabbuskor va ijodiy (faol tanlab va boyitish) merosi sifatida belgilaydi” [65].

Adabiyotshunos O.N.Veselova badiiy asarlarni adabiy an’analar nuqtayi nazaridan tahlil qilishni taklif etadi [66]. Bu shubhasiz, individual asarning g‘oyaviy mazmunini tushunishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, adabiy jarayon doirasida genetik aloqalarni aniqlashda yordam beradi. Tadqiqotchi an’analarni davrlarni bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ko‘radi. Tadqiqotchi haqli fikrni o‘rtaga tashlaydi. Tadqiqotchi G.V.Kazansevaning tadqiqotlariga e‘tibor qaratilsa, adabiy an’analar mavjudligining uchta sohasini aniq belgilab beradi [67]. U ijodiy uzluksizlikning quyidagi mumkin bo‘lgan jihatlarini ta’kidlaydi: diaxron “turli davrlarga oid tizimlar sifatida adabiyotlar yoki alohida asarlar o‘rtasidagi” aloqalar tufayli; sinxron “bir davrga tegishli tizimlar sifatida adabiyotlar yoki alohida adabiyotlar o‘rtasidagi” aloqalar bilan belgilanadi; diaxronik-sinxron “nafaqat turli davrlarga, balki bir davrga tegishli tizim sifatida adabiyotlar yoki alohida asarlar o‘rtasidagi” o‘zaro ta’sirlar bilan ta’minlangan. O‘zbek

adabiyotshunosligi va tadqiqotlariga e‘tibor qaratilsa, ularda ham an’ana borasidagi kuzatishlarga duch kelish mumkin. M.Yunusov “Barhayot an’analar” nomli tadqiqotida bu masalaga quyidagicha yondashadi: “dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan-davrga, bo‘g‘indan bo‘g‘inga o‘tib keladigan adabiy tajribalarni ko‘zda tutamiz. Ya’ni traditsiya keksa bo‘g‘in ijodiy laboratoriyasida sinalgan, jilosi o‘chmaydigan vositalarni yosh bo‘g‘inga topshirishdir.

Amalda traditsiya – g‘oyat katta bir xazina, uning turli-tuman javohirlari bor. Unda har kim o‘ziga keragini, birov syujet qurishdagi mahoratini, birov yorqin xarakterlar yaratishni, birov qahramonlar psixologiyasini tasvirlashni, boshqa birov romantik parvozni va hokazolarni oladi, o‘rganadi. Shu yo‘sinda traditsiyadan o‘rganish ma’lum ma’noda, badiiy tadqiqotga aylanadi” [68]. M.Yunusovning bu fikrlari A.S.Bushmin fikrlariga yaqin turadi. Chunki A.S.Bushmin ham an’anani keksa



bo'g'in bilan bog'lagan bo'lsa, yosh bo'g'inni an'analarni o'zlashtiruvchi shaxslar sifatida e'tirof etadi. Albatta, bu kabi qarashlar o'zini oqlaydi. Chunki davr ketma-ketligida saqlab qolingan an'ana yosh bo'g'inga o'tishi tabiiy holdir. Ushbu fikrlardan quyidagicha xulosa ham chiqarish mumkin: "Demak, har qanday ijodkor o'zidan oldin o'tgan salafлари va badiiy yetuk zamondoshlarining ijodlarini, yuksak tajribalarini, mahorat sirlarini o'rganish orqali kamol topadilar. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor "klassiklardan o'rganish degan so'zklassik asarlardagi... mehriyoni topishga o'rinish, topishdan iborat" – deydi. O'rganish – taqlid qilish emas, balki ta'sirlanish, ta'sirlanishning tahlil va tadqiq jarayonidaga badiiy kashfidir"[69].

O'zbek adabiyoti an'analari xususida gap ketganda albatta, mumtoz an'analarga e'tibor qaratish joiz sanaladi. Mumtoz adabiyotni boyitgan xususiyat esa xalq og'zaki ijodidir. U.To'ychiev o'zining "O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari" deb nomlanuvchi asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Navoiyning otasini kichik baxshi deb atashgan, u ko'p she'rdarni yoddan bilgan, adabiyotni sevgan. Navoiyning bir tog'asi ham shoir bo'lgan, shu sababli mashhur shoirlar Navoiy xonadonida tez-tez to'rlanib turishgan. Alisher Shayx Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston" asarlarini sevib o'qigan. Fariddin Attorning "Mantiq-ut tayr" asarini yoddan bilgan. Natijada 7-8 yoshida she'r yoza boshlagan. An'ananing kuchi shu darajada ediki, Alisher dastlabki she'rlarini fors-tojik tilida yozgan. Chunki o'sha davrda shu an'ana va ruh yetakchi edi. Navoiy ham yoshligidan ishni avval, asosan fors shoirlarini o'rganishdan boshladi" [70]. Darhaqiqat, Alisher Navoiy yashagan davr fors-tojik adabiyotining ta'siri beqiyos bo'lgan. Shu bois she'rxonlik davrlarida fors-tojik she'riyatining go'zal namunalariga bot-bot murojaat etilgan. Adabiyotshunos U.To'ychiev haqli fikrni o'rtaga tashlaydi. Alisher Navoiy oila davrasida badiiy ijoddan barhamad bo'lib ulg'aydi. Ayniqsa mashhur shoirlarning G'iyosiddin kichkina xonadoniga kelishi va ular tomonidan yoddan aytilgan g'azallar, asarlar izsiz yo'qolishi mumkin emas edi. Uning natijasi esa yosh Alisherda kuzatildiki, u she'r yozish bilan birga an'analarga hamrohlik ham qiladi. Bu ham ijodkorning bu she'riyatiga maftunkorligini anglatasa, yana bir tomondan davr taqozo bilan ham bog'liq hodisa sifatida anglashimiz mumkin. "Biror san'atkorning traditsiyani davom ettirish konkret tarixiy sharoit taqozosiga bog'liq"[71] ligi ham ayni haqiqatdir. Badiiylik

mezonlarining asosini an'ana tashkil etadi. "Adabiy traditsiya yozma va og'zaki adabiyotda davr sinovidan yaxshi o'tgan eng nodir g'oyaviy-badiiy meros va tajribani zamon talabi va estetik saviyasi jihatidan ijodiy o'zlashtirishdir"[72] degan



xulosalarga to‘liq qo‘shilish mumkin. O‘zbek adabiyotshunosligidagi fikrlarga e‘tibor qaratilsa, unda an‘ana mazmun va shakl bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin etiladi. Undan mazmun va shakl an‘anani boyitadi, degan fikrni ilg‘ab olish qiyin emas. Boyitilgan an‘ana o‘z navbatida xalqning ma‘naviy ehtiyojlari uchun xizmat qila boshlaydi. Chunki xalq hayoti, taqdiri qolaversa, davr an‘anani taqozo etadiki, unda ko‘tarilgan bashariy qadriyatlar ana shu mezonda o‘z ifodasini topadi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiev ta‘kidlaganidek: “Har qanday taraqqiyotda o‘zaro bog‘liqlik, davomiylik, an‘anaviylik bo‘ladi. Adabiy taraqqiyotdagi har bir yangi, ulkan hodisa ham o‘tmishdagi eng yaxshi an‘analarning ijodiy davom etishi natijasida yuzaga keladi. Adabiyot taraqqiyotida g‘oyalar tiplar va badiiy tasviriy vositalari doirasidagi an‘anaviylikni farqlash zarur. Bu uch sohadagi an‘anaviylik o‘ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Agar sohasidagi an‘anaviylik, asosan, dunyoqarashi bir-biriga yaqin bo‘lgan yozuvchilar ijodida ko‘zga tashlansa, tasviriy vositalar borasidagi an‘anaviylikni turli g‘oyaviy yo‘nalishdagi ijodkorlar asarlarida ham uchratish mumkin. Ikkinchi hol xuddi til kabi turli g‘oyaviy maqsadlarga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan badiiy tasviriy vositalari va usullari taraqqiyotining ichki qonuniyatlari bilan izohlanadi” [73]. Albatta, har bir ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘lgani kabi o‘ziga muqobil bo‘lgan tasviriy vositalarga murojaat etadi. Asarlarini shu me‘yor asosida yaratadi. Bu tasviriy vositalarini o‘z o‘rnida ham ijodkorga ham an‘anaga tegishli bo‘lishi ham mumkin. Bu kabi xususiyat ijodkor asarini boyitibgina qolmay, an‘anani davomiyligini ta‘minlaydi. Shu bois ham jahon adabiyotshunosligida bu muammoga asrlar davomida qayta-qayta murojaat etilmoqda. Masalan, N.V.Markinaning “Rey Bredberining badiiy olami: an‘ana va novatorlik” tadqiqotiga e‘tibor qaratilsa, adabiyotshunoslik sohasi asosida an‘ana va novatorlik masalasi tadqiq etiladi. Unda amerika adibining badiiy olami xususida fikr yuritilib, adibning fantastik olami tahlil etiladi. Uning jahon adabiyotiga qo‘shgan hissasi aynan an‘ana va novatorlikni o‘rganish asosida ochib beriladi [74]. Adabiyotshunos A.N.Mishalkin “V.Astafev ijodida F.M.Dostoyevskiy an‘analari” nomli tadqiqotida ijodkorning asarlari qiyosiy tahlil etilib, an‘ana va novatorlik xususiyatlari o‘rganiladi [75]. Ye.V.Ivanova esa o‘z tadqiqotini “N.M.Rubsov she‘riyatida an‘ana va novatorlik”ni o‘rganish asosida amalga oshiradi [76]. Bu kabi tadqiqotlarni rus adabiyotshunosligida yuzlab uchratish mumkin. Biroq barcha tadqiqotlarni birgina ushbu tadqiqotimizda qamrab olish imkoni bo‘lmaganligi bois, yuqoridagi fikr va qarashlar bilan kifoyalanamiz.





## Xulosa

Xullas, an'ana badiiylik mezoni bo'lib, u davrlar osha asosiy masalaga aylanib bormoqda. An'ana tushunchasi keng qamrovga ega. U nafaqat adabiyot sohasidagi davomiylikni belgilaydi, balki falsafa, estetika, san'at, madaniyat, tarix va boshqa sohalarda ham davomiylikni anglatadi. An'ana tushunchasi ham davrga, ham yo'nalishga hamda ijodkorga nisbatan qo'llaniladi. Hech bir ijrdkor o'z-o'zidan asar yarata olmaydi. Unga albatta salaflarning ijodiy izlanishlari ta'sir etadi. Natijada muftunkorlik sabab an'anaga murojaat etish kuzatiladi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гадамер Г.Г. Истина и метод. - М., 1988
2. Генон Р. Очерки о традиции и метофизике. –СПБ, 2000
3. Гердер И. Г. Идеи к философии истории человечества. - М, 1977
4. Шацкий Е. Утопия и традиция. – М., 1990; Благой Д. Д. О традициях и традиционности // Традиция в истории культуры. - М, 1978. - С. 28 - 36,
5. Власова В. Б. Традиция как социально-философская категория // Философские науки. -1980. - № 4. - С. 30 – 39.
6. Давыдов Ю. Н. Культура - природа - традиция // Традиция в истории культуры. - М., 1978. - С. 41-60
7. Завьялов М. Г. Традиция как способ самоидентификации общества. Дисс. ... канд. филос. наук. -Екатеринбург, 1997
8. Зильберман Д. Б. Традиция как коммуникация: трансляция ценностей, письменность //Вопросы философии. - 1996. - № 4. - С. 76-105
9. Касавин И. Т. Познание в мире традиций. - М., 1990.
10. Плахов В. Д. Традиции и общество: опыт философско-социологического исследования. - М., 1982
11. Солнцев Н. В. Наследие и время. М., 1996
12. Спиркин А. Г. Человек. Культура. Традиция // Традиция в истории культуры. - М., 1978. - С. 5-14
13. Суханов И. В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. - М., 1976, Франк С. Л. Духовные основы общества. Введение в социальную философию. - М, 1992.
14. Гадамер Г. -Г. Актуальность прекрасного. -М.; 1991
15. Зись А. Я. Преемственность искусства и искусствоведческая традиция // Зись А. Я. На подступах к общей теории искусства М. 1995. - С. 205 – 246/



16. Каменский А. А. О смысле художественной традиции // Советской искусствознание 82. - Вып. 1. - М., 1983. - С. 202 – 244.
17. Катаева Е. Г. Философско-эстетический анализ проблемы художественной традиции. Дисс. ... канд. филос. наук. - М., 1988.
18. Немченко Л. М. Художественная традиция: сущность и функционирование. Дисс.... канд. филос. наук. - Свердловск, 1987.
19. Турсун-Заде Ф. М. Художественные традиции и прогресс искусства. - Душанбе, 1976.
20. Гегель Г. В.:Ф. Эстетика: В 4 т. - М., 1968
21. Кант И. Критика способности суждения. - СПб., 1995.
22. Бергсон А. Индивидуальность и тип // Современная книга по эстетике. Антология. - М., 1957. - С. 176 – 87
23. Бердяев Н. А. Смысл творчества. Опыт оправдания человека // Философия свободы. Смысл творчества - М., 1989. - С.12 – 228
24. Ермаш Г. Л. Творческая природа искусства. - М., 1977
25. Конева А. В. Эстетический смысл индивидуальности (на материале художественной культуры). Дисс.... канд. филос. наук. - СПб., 1996.
26. Мелик - Пашаев А. А. Мир художника. - М., 2000.
27. Титов С. Н. Искусство: объект - предмет - содержание. - Воронеж, 1987.
28. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии: В 2 т. - Т. 1. — М., 1989.
29. Абульханова К. Проблемы психологии искусства в школе С. Л. Рубинштейна // Творчество в искусстве - искусство творчества. - М., 2000.- С. 122-141.
30. Басин Е. Я. Двуликий Янус: (О природе художественного таланта). - М., 1996.
31. Басин Е. Я. Творческая личность художника. - М., 1988.
32. Ванслов В. В. О традициях и новаторстве в искусстве // Проблема наследия в теории искусства. - М., 1984. - С. 45 -72.
33. Джангужин Р. Н. Новаторство как традиция: проблема преемственности в развитии художественной культуры. - Алма - Ата, 1981.
34. Куликова И. С. Традиции и новаторство в эстетике: Задачи и итоги XI Международного эстетического конгресса. - М., 1989.
35. Пайшев А. С. Проблема специфической закономерности развития искусства. Дисс. ... канд. филос. наук. — Н. Новгород, 1994.
36. Ушацкая И. А. проблема традиций и новаторства в советской эстетике 1920 - х годов. Дисс.... канд. филос. наук. - Минск, 1969.



37. Элиот Т. С. Традиция и индивидуальный талант// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX – XX в. -М., 1987.
38. Бернштейн Б. М. Традиция и канон. Два парадокса // Советское искусствознание, 80. - М., 1981. - Вып. 2. -С. 112-253.
39. Бычков В. В. Византийская эстетика. - М., 1977.
40. Бычков В. В. Русская средневековая эстетика. XI-XVII века. -М., 1995.
41. Флоренский П. А. Иконостас: Избранные труды по искусству. - СПб., 1993.
42. Алпатов В. М. Древнерусская иконопись. - М., 1974.
43. Богуславская И. Я. Народное искусство и художники русского авангарда // Искусство XX века. Вопросы отечественного и зарубежного искусства. - СПб., 1996. -Вып. 5. - С. 40 – 56.
44. Деготь Е. Русское искусство XX века. - М., 2000.
45. Кожина Е. Ф. Романтическая битва. Очерки французской романтической живописи 1820-х годов. - Л, 1969.
46. Колпинский Ю. Д. Великое наследие античной Эллады и его значение для современности. - М., 1988.
47. Баткин Л. М. Итальянское Возрождение в поисках индивидуальности. - М., 1989.
48. Бицилли П. М. Место Ренессанса в истории культуры. - СПб., 1996.
49. Бицилли П. М. Элементы средневековой культуры. - СПб., 1995.
50. Боннар А. Греческая цивилизация: В 3 т. - М., 1992.
51. Делакура Э. Мысли об искусстве, о знаменитых художниках. - М., 1960
52. Кандинский В. О духовном в искусстве. - М., 1992.
53. Леонардо да Винчи. Избранные произведения: В 2 т. - М.-Л., 1995.
54. Малевич К. Статьи, манифесты, теоретические сочинения и другие работы. 1913 -1929 // Собрание сочинений: В 5 т. - Т. 1. - М., 1995.
55. Лехциер В. Л. Введение в феноменологию художественного опыта. - Самара, 2000.
56. Борхес Х. Л. Письмена Бога. - М., 1994; Булгаков С. Н. Свет невечерний: Созерцания и умозрения. - М., 1994.
57. Соловьев В. С. Общий смысл искусства// Философия искусства и литературная критика. - М., 1991. -С. 73-89.
58. Вышеславцев Б. П. Этика преображенного эроса. - М., 1994.
59. Лосский Н. О. Мир как осуществление красоты. Основы эстетики. - М., 1998.



60. Дынник В.А. Традиция // Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: в 2-х т. / под ред. Н. Бродского, А. Лаврецкого и др. – М.; Л.: Изд-во Л.Д. Френкель, 1925. – Т. 2: П – Я. – Стб. 972.
61. Бушмин А.С. Преемственность в развитии литературы как проблема исследования. – С. 138–191.
62. Благой Д.Д. О традициях и традиционности // Традиция в истории культуры: сборник. – М.: Нау-ка, 1978. – С. 28–36.
63. Благой Д.Д. От Кантемира до наших дней: в 2-х т. – Т. 1. – С. 247.
64. Лихачёв Д.С. Искусство памяти и память искусства // Лихачёв Д.С. Прошлое – будущему. – С. 63–70.
65. Хализев В.Е. Теория литературы. – С. 363-364.
66. Веселова О.Н. Проблема традиций в современном литературоведении // Ученые записки Орловского государственного университета. – 2011. – № 2. – С. 106–114.
67. Казанцева Г.В. Традиция как литературоведческая категория в контексте изучения беллетризо-ванной биографии // Вестник Челябинского государственного университета.– 2009. – № 35. – С. 75–79.
68. Юнусов М. Барҳаёт анъаналар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969, 17-бет.
69. Умуров Ҳ. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002, 147-бет.
70. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2011, 374-бет.
71. Мамажонов С. Сайланма. – Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981, 476-бет.
72. Ўзбек адабиёти танқиди тарихи. Икки томлик, иккинчи том. –Тошкент: Фан, 1987, 107-бет.
73. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008, 219-бет.
74. Маркина Н.В. Художественный мир Рея Брэдбери: традиции и новаторство. Автор. дисс...канд. филол. наук. - Самара, 2006.
75. Мишалкин А.Н. Традиции Ф.А.Достоевского в творчестве В.Астафьева. Автор. дисс... канд. филол. наук. - Москва, 1993.
76. Иванова Е.Н. Традиции и новаторство в поэзии М.Н.Рубцова. Автор. дисс... канд. филол. наук. - Москва, 1996.

